

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

MIKROMOLIYAVIY XIZMATLARNING NAZARIY, NORMATIV- HUQUQIY ASOSLARI

M.S.Rustamov

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).*

M.O.Egamberganov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti moliya fakulteti talabasi

Annotatsiya: mikromoliyaviy xizmatlarning soni va sifatini oshirish hamda mikromoliyaviy xizmatlar bozori faoliyatini takomillashtirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda chuqur tadqiq qilingan bo‘lib, mazkur nazariy qarashlarda mikrokredit va mikrolizing xizmatining xarajatli ekanligi, daromadlilik darajasining pastligi e‘tirof etilgan bo‘lib, shu sababli, kichik biznes va tadbirkorlik sub‘ektlariga ko‘rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlarning bahosini pasaytirish va barqarorligini ta‘minlashning zarurligi e‘tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: Mikromoliyalash, aktiv, mikromoliyalash muassasalari, mikromoliyaviy xizmatlar, mikrokredit, mikrolizing boshlang‘ich qiymati, qarz majburiyatlari.

Mikromoliyalash kam ta‘minlangan aholiga o‘z xususiy tadbirkorligi bilan shug‘ullanishlari uchun moliyaviy xizmat ko‘rsatish tushuniladi. Mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar moliyaviy xizmatlar hisoblanmish mikrokreditlar berish va jamg‘arish vazifalarini amalga oshirish bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatini yangi boshlayotganlarni moliyaviy bilimlarga o‘qitadi va mikromoliyalash sohasida ish yuritishlari uchun o‘z-o‘ziga ishonchni oshirish kabi vositachilik xizmatlarini ham ko‘rsatadi.

Mikromoliyalash muassasalari aholining (tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmagan) kam daromadli qatlamlariga, yetarli kredit ta‘minotiga, kredit tarixiga ega bo‘lmagan va kam miqdordagi kreditga muhtoj mikrokorxonalar va tadbirkorlarga samarali xizmat ko‘rsatishi tufayli moliya bozorida raqobatlashuv mavqeini saqlab turishi mumkin bo‘lgan bir qator afzalliklarga ega.

Mikromoliyalash dastlabki rivojlanish davrida juda tor ma‘noda, ya‘ni rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allik muammolar yechimini topish usuli sifatidagina talqin qilingan. Biroq o‘zining ortirgan tajribasi natijasida mikromoliyalash sohasi qamrovi va maqsadli yo‘naltirilganligidan kelib chiqib, hozirgi vaqtda ko‘plab mamlakatlarda kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, ananaviy moliya institutlarining xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mikro korxonalariga moliya - kredit xizmatlarini taqdim etish va kichik biznesga ko‘maklashish vositasi sifatida keng qo‘lanilmoqda.

Mikromoliyalash va mikromoliyaviy xizmatlar bozorining rivojlanish evolyutsiyasi o‘tgan XX asrning o‘rtalarida aholining kam daromadli

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

qatlamlariga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish borasidagi dastlabki sa‘y-harakatlar ushbu xizmatlardan foydalanishning pirovard maqsadlari bilan bog‘langan. Xususan, XX asrning 50-70 yillarida davlat idoralari va donor tashkilotlar mayda va kam ta‘minlangan fermerlarning ish unumini hamda daromadlilik darajasini oshirish umidida ularga subsidiyalangan qishloq xo‘jalik kreditlarini berib kelganlar. 80-90 yillarida mikrokreditlar asosan aktivlarga ega bo‘lish va ularni jamg‘arish, oilalarning daromadini va turmush darajasini oshirish uchun kam ta‘minlangan tadbirkorlarga qarz berishdan iborat edi. Mikrokredit oluvchilarning aksariyat qismi esa ayollardan iborat bo‘lib, ular uchun mikrokreditlash ayniqsa samarali vositaga aylangan¹.

Mikromoliyaviy xizmatlar bozori faoliyatini rivojlantirishning alohida nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlar M.Yunus, A.Busigin, V.Demkovich, D.Savinova, L.Ibadova, M.Ismailov, O.Lavrushin, R.Gilferding, M.Mamut, A.Savatyugin, S.Andryushin, T.Gomanova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, xorijlik iqtisodchi olim M.Mamutning fikricha mikrokreditlar berish va unchalik katta bo‘lmagan aholi turar joylarida ishlash sezilarli darajada katta xarajatlarni talab etadi. Agar bunday sharoitda mikrokredit amaliyotlarini Markaziy bank tomonidan nazorat qilish yo‘lga qo‘yilsa, tijorat banklarining mikrokreditlar berishdan hafsalasi pir bo‘lishi mumkin. Ammo mikrokreditlash amaliyotida kredit riski mavjud, bu esa, mikrokredit amaliyotlarini nazorat qilishni taqozo etadi.

Shuningdek, xorijlik iqtisodchi D.Savinovanning fikriga ko‘ra, kichik tadbirkorlikni kreditlash bozorining har bir bosqichi uchun alohida kredit xizmati ko‘rsatish zarur. U mazkur bozorning uch bosqichi bo‘yicha uch xil kredit xizmatini taklif etadi:

- yakka tadbirkorlarga va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan kichik biznes sub‘ektlariga minimal miqdorda mikrokreditlar berish;
- kichik biznes sub‘ektlariga kapital qurilish va asosiy vositalar sotib olish uchun cheklov asosida, bir marotabali kreditlash va kredit yo‘nalish ochish yo‘li bilan kreditlash shaklida, cheklovlar belgilash orqali o‘rta va uzoq muddatli kreditlar berish;
- kichik biznes va tadbirkorlik sub‘ektlariga aylanma kapitalni to‘ldirish maqsadiga overdraft shaklida yoki kredit yo‘nalishi ochish orqali kreditlar berish².

A.Vaxabov o‘zining “Qishloq aholisi turmush darajasini oshirishdabank tizimining o‘rni” mavzusidagi ma‘ruzasida kichik biznes sub‘ektlariga qishloq joylarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan ishlab chiqarish korxonalarini va firmalarini tashkil etish maqsadida banklar tomonidan berilgan investitsion kreditlarning foiz stavkalarini O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan bonifikatsiya qilishni

¹ Таджибаева. Д.А, Муминов. И.О. Микрофинансирование: руководство для микрофинансовых организаций. - Тошкент: МОЛИЯ, 2009. – С. 11-13.

² Савинова Д. В. О формировании механизма привлечения кредитных ресурсов в малый бизнес // Денги и Кредит.- Москва, 2009. - № 5. – С. 60-61.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

taklif qilgan. A.Vaxabovning fikriga ko‘ra, ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi quyidagi amaliy natijalarga erishish imkonini beradi:

- qishloq joylarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash hajmi oshadi, kichik biznes sub‘ektlarining moliyaviy ko‘rsatkichlari yanada yaxshilanadi;

- qishloq joylarda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan kichik biznes sub‘ektlarining investitsion kreditlarni qaytarish imkoniyati oshadi;

- investitsion kreditlar berayotgan banklarning faoliyatidagi kredit riski darajasi pasayadi;

- qishloq aholisining bandlik darajasi oshadi³.

Fikrimizcha, A.Vaxabovning mazkur taklifi juda o‘rinli va amaliy ma‘lumotlar tahliliga asoslangan ilmiy taklifdir. Shu o‘rinda qo‘shimchasifatida aytish mumkinki, kichik biznes sub‘ektlariga berilgan kreditlarning foiz stavkalarini bonifikatsiya qilinishi mikromoliyaviy xizmatlarning muhim turi bo‘lgan mikrolizing xizmatini rivojlantirishga kuchli turtki beradi.

Mikromoliyaviy xizmatlar bozori tushunchasiga O.I.Lavrushin quyidagicha fikr bildirgan: “Kredit resurslari bozori - bu shunday bozorki, u yerda yangi pullar yaratiladi va iqtisodiyotning barcha sektoridagi pul resurslarga bo‘lgan talabini qondirishga yordam berishi bilan bir qatorda mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarni bartaraf etadi”⁴.

Masalan, Sh.Xakimov shunday yozadi: “Mikromoliyalash-bu moliyaviy barqaror bo‘lmagan fuqarolar yoki xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarni o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash yoki kichik tadbirkorligini rivojlantirish uchun ularga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish jarayonidir va quyidagi jarayonlarni rivojlanishiga olib keladi:

- zarur bo‘lgan pul resurslarga bo‘lgan ehtiyojlarni qondiradi;
- tadbirkorlik faoliyatini kengaytiradi, ayniqsa xususiy va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantiradi;

- ayollarni iqtisodiy faollikka jalb qiladi;
- mahalliy ishlab chiqarishga ko‘maklashadi;
- kambag‘allikni kamaytirib, ijtimoiy muammolarni hal qiladi;
- iqtisodiyotni real sektori jarayoniga iqtisodiy nochor aholini jalb qiladi va yangi ish o‘rinlarini yaratadi;

- moliya bozorida yangi xizmat turlarini yaratilishiga zamin yaratadi”⁵.

Banklar, mikromoliya va to‘lov tashkilotlari, shuningdek mikroqarzar berishga oid qism bo‘yicha lombardlar mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshirishga haqli.

Mikromoliya tashkiloti - mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga

³ Vaxabov A.V. Qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda bank tizimining o‘rni. “Qishloq taraqqiyoti va aholi turmush darajasini oshirishda bank-moliya tizimining o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. – Toshkent: Moliya, 2009. – 22 B.

⁴ Лаврушин О.И. Денги, кредит, банки // Москва: Финансы и статистика, 2000. – С 16.

⁵ Хакимов Ш.Х. Развитие микрофинансирования в Узбекистане. – Тошкент, 2005.- С. 5

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

oshiruvchi, shuningdek ushbu Qonunda nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni ko‘rsatuvchi yuridik shaxs.

Mikromoliya tashkilotlari:

- mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshirishga;
- to‘lov agenti (subagenti) yoki banklarning, sug‘urta va boshqa moliya tashkilotlarining agenti vazifalarini amalga oshirishga;
- o‘zi amalga oshirayotgan faoliyat bilan bog‘liq maslahat va axborot xizmatlarini ko‘rsatishga;
- tadbirkorlik subyektlariga mikro kredit summasidan oshadigan miqdorda kreditlar, lizing, kafolatlar berishga, faktoring xizmatlari va islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko‘rsatishga haqli.

Mikro kredit tashkilotining ustav fondi pul mablag‘laridan, shuningdek, mazkur tashkilot ustav fondi miqdorining yigirma foizidan oshmaydigan boshqa mol-mulkdan shakllantiriladi. Ushbu tashkilotning ustav fondni shakllantirishda kreditga, garovga olingan mablag‘lardan va boshqa jalb qilingan mablag‘lardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Mikro kredit tashkilotlar ustav fondining mikdori ikki milliard so‘m belgilangan.

1.1-jadval.

Mikromoliya tashkilotlar jami va ustav kapitali miqdori bo‘yicha guruhlanishi⁶.

| Ko‘rsatkichlar nomi | Jami | | shulardan | | | | | | | |
|-------------------------------|--------------------------------|--------------------|-------------------|----------------|-----------------------------------|----------------|------------------------------------|----------------|-----------------------------|----------------|
| | | | 1 mlrd.so‘m gacha | | 1 mlrd. so‘mdan 3 mlrd.so‘m gacha | | 3 mlrd. so‘mdan 10 mlrd.so‘m gacha | | 1 mlrd.so‘m va undan yuqori | |
| | mikromoliya tashkilotlari soni | summa (mlrd. so‘m) | soni | ulishi, foizda | soni | ulishi, foizda | soni | ulishi, foizda | soni | ulishi, foizda |
| 01.03.2022 y. holatiga | | | | | | | | | | |
| Jami kapital | 71 | 726,0 | 2 | 0,3 | 24 | 7,5% | 31 | 23,5% | 14 | 68,8% |
| shundan, ustav kapitali | 71 | 386,2 | | | 45 | 25,2% | 16 | 20,8% | 10 | 54,0% |
| 01.03.2023 y. holatiga | | | | | | | | | | |
| Jami kapital | 84 | 1084,8 | 2 | 0,1 | 26 | 5,4% | 34 | 16,1% | 22 | 78,3% |
| shundan, ustav kapitali | 84 | 603,8 | 1 | 0,1 | 48 | 17,5% | 24 | 20,8% | 11 | 61,6% |

Ushbu qonunga muvofiq mikro kredit tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar turlari quyidagilardan iborat:

- mikro kreditlar yoki mikroqarzlarni berish;
- qarz majburiyatlarini sotib olish va sotish (faktoring);

⁶ www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

•mikrokredit tashkiloti lizing beruvchi sifatida ishtirok etadigan mikrolizing (moliya ijarasi);

•qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turdagi mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan iste‘mol kreditlari berish;

•mikrokredit tashkiloti qarz majburiyatlarini chiqarishga hamda yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilishga xaqli emas.

Xulosa qilib aytganda, Tijorat banklari va nobank kredit muassasalarining mikrokredit amaliyotlarini Markaziy bank tomonidan nazorat qilish masalasida iqtisodchi olimlar o‘rtasida munozarali qarashlar mavjud. Fikrimizcha, mazkur amaliyotlarda kredit riski darajasining yuqori ekanligi hamda davlat tomonidan mikrokreditlash uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi natijasida tijorat banklari kredit portfelida mikrokreditlarning yuqori salmoqqa ega bo‘lishini hisobga olgan holda, banklar va nobank kredit muassasalarining mikrokredit amaliyotlari nazorat qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Самадова Н.Р. Хўжалик юритувчи субъектлар иқтисодий салоҳияти тушунчаси ва унинг назарий асослари. // Бизнес эксперт (илмий-амалий журнал). –Тошкент, - №4. 2021. – 87-91 б. (08.00.00; №4)

2. Самадова Н.Р. Хўжалик юритувчи субъектларда иқтисодий салоҳиятни ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлилининг амалий жиҳатлари // Scientific Journal of “International Finance & Accounting” 3/2023.

3. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>

4. Ibragimov Gayratjon Artikovich, Kurbanbaev Jurabek Eruvbayevich, Mukhiddinova Barno Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>

5. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2022). ISSUES OF PRODUCT PRICING IN THE ANALYSIS OF OPERATIONAL. Пандемия шароитида иқтисодиёт, молия ва бошқарувда рақамли трансформация жараёнлари (IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6641015>

6. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>

7. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА ОПЕРАЦИОН ЦИКЛ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ MASALALARI . World Scientific Research Journal, 16(1), 196–203. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2718>
8. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3034>
9. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3035>
10. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ MASALALARI . World Scientific Research Journal, 12(2), 263–271. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2557>
11. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, (2), 2181-1016.
12. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . World Scientific Research Journal, 23(2), 231–238. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3036>
13. Тулаев, М. С., & Кличев, Б. П. (2022). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА КОРПОРАТИВНЫХ ОБЛИГАЦИИ: ОБЯЗАТЕЛЬСТВО ИЛИ КАПИТАЛ. In *Учет, анализ и аудит: их возможности и направления эволюции* (pp. 146-154).
14. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 239–246. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3037>
15. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КЎРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>
16. У.А. Нурманов. (2024). ЖОРИЙ АКТИВЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ЖАРАЁНИДА БОШҚАРИШ ФУНКЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World Scientific Research Journal, 26(3), 140–147. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3257>

17. Yuldashevna, R. U. (2022). Monitoring of Credit Risks as Financial Resources In Commercial Banks. *International journal of trends in business administration*, 12(1).

18. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2024). NOMODDIY AKTIVLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 177–184. Retrieved from

<http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3261>

19. Rozmatova Umida Yuldashevna. (2023). IQTISODIYOTNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI . *World Scientific Research Journal*, 16(1), 20–22. Retrieved from

<http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2693>

